

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60811600-Yer kadastri va yer tuzish bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent Davlat agrar universiteti.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «25» iyun dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalıshlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. Umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

60811600 – Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil

1.1. Qo’llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo’llanishi.

Malaka talabi 60811600 -- Yer kadastrı va yer tuzish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo’yicha taqsimlanishi, tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek “Kadastr” agentligi infratuzilmasi va korxonalari, yer kadastrı va yer tuzish sohasi bo’yicha ilmiy loyihalash va tadqiqot muassasalari, yerdan foydalanish, yer egaliklari, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish; ko’chmas mulk obyektlari, shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchastkalari, ularning huquqiy holati, davlat ro’yxatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish; kadastr axborot tizimlari; loyiha - texnik va rejalashtirish hujjatlari kabi kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida yer kadastrı va yer tuzish muhandisi

60811600 – Yer kadastrı va yer tuzish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60811600 – Yer kadastrı va yer tuzish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan yengil sanoat texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish. yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash; ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

yengil sanoat sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

yer kadastrı, yer tuzish va yerdan foydalanish sohasida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

ishlab chiqarishda hayot faoliyati havfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong'inga, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Loyihaviy konstruktorlik faoliyatida:

Yer kadastrı va yer tuzish sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

loyihalashtirish uslublarining zaif va ustun jihatlarini tahlil qila bilish;

loyihalarning texnik asoslarini asoslash va ularni amalga oshirishning muhandislik asoslarini ishlab chiqish;

loyiha-texnik faoliyati bilan rejalashtirish faoliyatini qo’shib olib borish ko’nikmalariga ega bo’lish;

loyihalarning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini ishlab chiqish masalalarining aniq va tushunarli asoslarini yaratish.

Axborot-tahliliy faoliyatda:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo’llay olishi;

og’zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me’yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g’oya, taklif, ta’rif va xulosalami mantiqiy, to’g’ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi; olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko’rib chiqish, o’z-o’zini rivojlantirish, malaka oshirish va o’z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o’zgartirishga qodir bo’lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi; axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

me’yoriy-xuquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

tashkiliy tuzilmalarni maqbullashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo’llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

yer kadastrı va yer tuzish sohalarining talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejankor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

yer kadastrini yuritishning ilmiy-uslubiy asoslar va texnologiyasi, ular to’g’risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, yer kadastr va yer tuzishning tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;

yer kadastr va yer tuzish tizimi, amaliyotda qo’llanib kelinayotgan yo’riqnomalar, me’yoriy hujjatlar va uslubiy ko’rsatmalardan foydalanish; yer egaliklari va yerdan foydalanishlar turlarini, ularni tashkiliy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini tanlash; yer resurslari haqidagi ma’lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini; yer kadastr va yer tuzishni amalga oshirishda zamonaviy axborat texnologiyalaridan foydalanishni ta’minlashi;

yer resurslarining iqtisodiy samaradorligi, intensivatsiyalash, qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;

yer tuzish loyihalarida yer resurslaridan foydalanilishni iqtisodiy asoslash, bozor, hududiy va ishlab chiqarishning xususiyatlari, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta’minlashi;

davlat yagona kadastrlari tizimi asoslarini, uning tarkibini va yuritishni bilishi;

yer resurslarini boshqarish usullarini va ularning qo’llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta’minlashi;

yer resurslarini huquqiy, ekologik va iqtisodiy muhofaza qilish usullarini va ularning qo’llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta’minlash ko’nikmalariga ega bo’lish.

3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O’quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4890	163	
1.01	XT1115	Xorijiy til	360	12	1,2
1.02	MAT1114	Oliy matematika	300	10	1,2
1.03	FIZ1105	Fizika	120	4	1
1.04	OYT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.05	TIL1104	O’zbek (rus) tili	120	4	1
1.06	GEO1110	Geodeziya	300	10	1,2

1.07	YFA1104	Yerdan foydalanish asoslari	120	4	2
1.08	JT1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.09	D1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	FAL2105	Falsafa	120	4	3
1.11	KAR2105	Kartashunoslik	150	5	3
1.12	DKA2106	Davlat kadastrlari asoslari	150	5	3
1.13	YTA2103	Yer tuzish asoslari	150	5	3
1.14	TD2105	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	150	5	3
1.15	YKYTGI2106	Yer tuzishda geodezik ishlar	150	5	3
1.16	YRB2105	Yer resurslarini boshqarish	180	6	4
1.17	YTMM2105	Yer tuzishda iqtisodiy-matematik usullar va modellar	120	4	4
1.18	YK 2105	Yer kadastri	300	10	4,5
1.19	YTL3105	Yer tuzishni loyihalash (xo'jaliklararo yer tuzish, xo'jalikda ichki yer tuzish)	360	12	5,6
1.20	APYK3110	Aholi punkti yerlari kadastri	150	5	5
1.21	YRFP3116	Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va prognozlash	150	5	5
1.22	YH3110	Yer huquqi	150	5	5
1.23	YM4105	Yer monitoringi	150	5	7
1.24	YFE3105	Yerdan foydalanish ekologiyasi	150	5	7
1.25	YKTTE3105	Yer kadastri va yer tuzish ishlarini rejalashtirish va tashkil qilish	150	5	7
1.26	YTT4105	Yer kadastri va yer tuzish ishlarini avtomatlashgan tizimlari	180	6	7
1.27	YTI4105	Yer tuzish iqtisodi	150	5	8
1.28	LYT4105	Landshaftli yer tuzish	150	5	8
2.00		Tanlov fanlar	1140	38	
2.00		Tanlov fanlar (11 ta fan)	1140	38	4,5,7,8
Kvalifikatsiya		Yer tuzish va yer kadastri muhandisi			
		Jami	6030	201	
		Malakaviy amaliyot	1170	39	2,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1170	39	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, yer kadastrı, qishloq va noqishloq xo'jalik yerlari kadastrı, aholi punkti yerlari kadastrı, yer tuzish, yer monitoringi, yer huquqi, geodeziya, kompyuter grafikasi, kartografiya, fotogrammetriya va masofadan zondlash, yer uchastkasi, yer resurslari, yer resurslari iqtisodiyoti, yer tuzishni loyihalash, yer kadastrı va yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari, landshaftli yer tuzish, axborotlar taxlili, avtomatlashtirilgan tizimlar, xo'jaliklararo yer tuzish, yer resurslaridan foydalanish, yer resurslarini boshqarish, yerdan foydalanish ekologiyasi, yerdan foydalanishni bashoratlash, davlat yer nazorati.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy tadqiqot universiteti



Rektor [Signature] B.Mirzayev

2024 yil « ____ » _____

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor [Signature] M.Boltabayev
2024 yil « ____ » _____
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq
xo'jalik vazirligi huzuridagi
“O'ZDAVYERLOYIHA” DILI

Bosh direktor o'rinbosari
[Signature] B.Inamov
2024 yil « ____ » _____
M.O'.

Toshkent Davlat agrar universiteti

Yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektor

[Signature] S.Islamov
2024 yil « ____ » _____



Respublika aerogeodeziya markazi

Bosh direktorining birinchi
o'rinbosari

[Signature] Sh.Mayinov
2024 yil « ____ » _____
M.O'.